

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

No1

2026
yanvar



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 245 sahifa.
2026-yil, yanvar

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afurovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА.....	26
Каракулов Фарход Зайпудинович	
TRANSPORT TIZIMIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	33
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI BAHOLASH	38
Achilov Ilmurad Nematovich	
TURIZM OBYEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	45
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o'g'li	
КАЧЕСТВО КРЕДИТНОГО ПОРТФЕЛЯ БАНКОВ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ПРОБЛЕМНЫХ КРЕДИТОВ	51
Алиева Сусанна Сейрановна	
ВЛИЯНИЕ ЛИБЕРАЛИЗАЦИИ И РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ НА РАЗВИТИЕ ОВЦЕВОДСТВА И КАРАКУЛЕВОДСТВА В ГЛОБАЛЬНОМ МАСШТАБЕ	58
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
BARQAROR INVESTITSİYALAR: IQTISODIYOTDAGI ROLI VA DOLZARBLIGI	65
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
KRAUDFANDING – BARQAROR RIVOJLANISHNI AMALGA OSHIRISH UCHUN INNOVATSION MOLIYAVIY VOSITA SIFATIDA.....	71
Ashurova Oltin Yuldashevna	
FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	78
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI UCHUN BARQAROR BREND QIYMATINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	84
Bekmurod Davlatmurotovich Ollaberganov, Zilola Baxramovna Abdikarimova	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	89
Atajanov Kamal Atavayevich	
AVTOTRANSFORMATORLARNING TASHQI MAGNIT MAYDONINING MATEMATIK MODELI	96
Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Baxriddinov Begzod Alibek o'g'li	
O'ZBEKISTON VA JAHON AMALIYOTIDA BUDJET MUASSASALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISHIGA RETROSPEKTIV TAHLIL	101
Berdiyev Toshkenboy Panjiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: RISKGA ASOSLANGAN YONDASHUV VA AMALIY MEKANIZMLAR	108
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
Shayxiev Boburbek Ulug'bekovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING KONSEPTUAL MODELI.....	120
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	



GEODEZIYA VA GIS TEXNOLOGIYALARINING INTEGRATSIYASI.....	125
Ziynura sabirova	
RESPUBLIKADA UY-JOY QURILISHI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT VA XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGINING O'RNI	129
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА АО «УЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙУЛЛАРИ» В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ РЕФОРМ.....	133
Кадилова Шарофат Амоновна	
KASBLARNI MODERNIZATSIYA QILISH VA MEHNAT BOZORINING YANGI MODELINI BARPO ETISH	139
Ruziyev Oybek Abdumuminovich, Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL BIZNESINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	143
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
QISHLOQ JOYLARIDA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	148
Amaniyazova Rayhan Bayniyazovna	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ МАЛОМОЩНЫХ СЕТЕВЫХ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	153
Кудратов Афзалхужа Рустамович, Далмурадова Наргиза Нуриллаевна, Шогучкаров Санжар Кодирович	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	161
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	
INNOVATSION BANK EKOTIZIMLARINING TIJORAT BANKLARI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	165
Aliyev Hasan Rayimjonovich	
ANALYSIS OF FACTORS OF INTENSIVE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	171
Sharipov Kamil	
SUN'IY INTELLEKT – TO'RTINCHI SANOAT INQILOBINING ASOSI.....	176
Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	
KORXONALARDA MOLIVAVIY BOSHQARUVNING TASHKILY VA IQTISODIY MASALALARI	187
Jumayev Samariddin Ziyodullaevich	
YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI OSHIRISH YO'LLARI	193
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TALABALARDA O'Z-O'ZINI TARTIBGA SOLISH KO'NIKMALARINING RIVOJLANISHIDA INTERAKTIV TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI	198
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Gulnora Abdullo qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING XORIJIY TAJRIBASI	203
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISHI VA BU JARAYONGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	208
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
IQTISODIY-MATEMATIK VA SSENARIYLI YONDASHUVLARDAN FOYDALANIB SANOAT RIVOJLANISHINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH	213
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich, Qayumova Nurafshona Ulug'bek qizi	
EKSPORTNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINING DOLZARBLIGI	217
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



LEGAL AND INSTITUTIONAL FOUNDATIONS OF ECONOMIC COOPERATION BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS	222
Yovkochev Sherzod	
ICHKI AUDIT FUNKSIYALARINING ICHKI NAZORATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI	228
Tursunov Shohruxmirzo Baxtiyor o'g'li	
MOSH DONINI YANCHIB Olishda qo'llaniladigan qurilmani loyihalash.....	232
Qurbanov Abdimalik Jo'rayevich	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR	239
Sarvar Saidov Xayrulloevich	



DAVLAT BOSHQARUVIDA SAMARADORLIKNI BAHOLASH: INSTITUTIONAL MEXANIZMLAR, RAQAMLI YECHIMLAR VA AMALIY KUTILMALAR



Sarvar Saidov Xayrulloevich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Boshqaruv samaradorligi agentligi qoshidagi
Rahbar kadrlarni baholash markazi
mas'ul xodimi
ORCID: 0009-0006-0206-5862

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-dekabrdagi "Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-243-sonli Farmoni asosida davlat boshqaruvida samaradorlikni baholash tizimini joriy etishning amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Institutsional, hududiy va raqamli keyslar asosida baholash natijalarining boshqaruv qarorlariga integratsiyasi, resurslarni qayta taqsimlash va natijadorlikni oshirishga ta'siri yoritiladi. Samaradorlikni jazolash vositasi sifatida emas, balki siyosatni moslashtirish va barqaror rivojlanish instrumenti sifatida qo'llash zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi, samaradorlikni baholash, natijadorlik, institutsional islohotlar, raqamlashtirish, boshqaruv qarorlari, davlat xizmatlari, resurslarni taqsimlash.

Abstract. The article analyzes the practical aspects of implementing a system for evaluating the effectiveness of public administration based on Presidential Decree No. PF-243 of December 6, 2025, "On Measures to Further Improve Management Efficiency in the Civil Service of the Republic of Uzbekistan." Using institutional, regional, and digital case studies, the paper examines how the integration of performance evaluation results into managerial decision-making affects resource reallocation and overall performance improvement. The study substantiates the need to apply performance evaluation not as a punitive tool, but as an instrument for policy adaptation and sustainable development.

Keywords: public administration, performance evaluation, effectiveness, institutional reforms, digitalization, managerial decisions, public services, resource allocation.

Аннотация. В статье анализируются практические аспекты внедрения системы оценки эффективности государственного управления на основе Указа Президента Республики Узбекистан от 6 декабря 2025 года № PF-243 «О мерах по дальнейшему повышению эффективности управления на государственной службе». На основе институциональных, территориальных и цифровых кейсов раскрывается влияние интеграции результатов оценки в управленческие решения, перераспределение ресурсов и повышение результативности деятельности органов государственного управления. Обосновывается необходимость применения оценки эффективности не как инструмента наказания, а как механизма адаптации государственной политики и обеспечения устойчивого развития.

Ключевые слова: государственное управление, оценка эффективности, результативность, институциональные реформы, цифровизация, управленческие решения, государственные услуги, распределение ресурсов.

KIRISH

So'nggi yillarda respublikada davlat boshqaruvini isloh qilish, davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv modelini joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jamiyat va iqtisodiyotdagi tezkor o'zgarishlar, raqamlashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi hamda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining davlat xizmatlariga bo'lgan talablarining ortishi davlat boshqaruvi tizimidan faqatgina tartib-taomillarga rioya qilishni emas, balki aniq, o'lchab bo'ladigan va jamiyat hayotida sezilarli natijalarni ta'minlashni talab etmoqda.

Mazkur yondashuvning normativ va institutsional asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-dekabrda qabul qilingan "Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-243-sonli Farmoni alohida ahamiyat kasb etadi [1]. Ushbu hujjatda davlat boshqaruvida samaradorlikni baholashning institutsional tizimini shakllantirish, natijalarga yo'naltirilgan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda davlat organlari faoliyatini yagona baholash mantiqi asosida muvofiqlashtirish vazifalari belgilab berilgan. PF-243-sonli Farmon samaradorlik masalasini alohida sohaviy vazifa sifatida emas, balki davlat boshqaruvining barcha darajalarini qamrab oluvchi tizimli yo'nalish sifatida belgilashi bilan konseptual ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, amaliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, islohotlar ko'lami va siyosiy iroda mavjud bo'lgan holatda ham davlat boshqaruvi tizimida samaradorlikni ta'minlash doim ham kutilgan natijani bermayapti. Ayrim vazirlik va idoralarda baholash ko'rsatkichlari joriy etilgan bo'lsa-da, ular ko'p hollarda ichki hisobot yoki formal KPI darajasida qolib ketmoqda, hududiy bo'g'inlarda esa natijadorlikni boshqarish institutsional va kadrlar salohiyati nuqtayi nazaridan yetarli darajada shakllanmagan. Raqamli platformalar joriy etilgan bo'lishiga qaramasdan, ularning ko'pchiligi qaror qabul qilish jarayonlari bilan chuqur integratsiya qilinmagan [2].

Ushbu holat davlat boshqaruvida qator amaliy muammolarni yuzaga chiqarmoqda, jumladan: samaradorlikni baholash natijalarining boshqaruv qarorlariga to'liq integratsiya qilinmasligi; markaziy va hududiy darajalar o'rtasida mas'uliyat hamda vakolatlarning aniq chegaralanmagani; raqamli instrumentlarning asosan ma'lumot yig'ish funksiyasi bilan cheklanib qolishi; baholash natijalaridan siyosatni tuzatish va resurslarni qayta taqsimlashda cheklangan foydalanilishi. Bu esa samaradorlikni baholash tizimini hisobot vositasidan real boshqaruv mexanizmiga aylantirish zarurligini ko'rsatadi [3].

Shu nuqtayi nazardan, PF-243-sonli Farmonida nazarda tutilgan yondashuvlarni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish uchun ularni aniq institutsional mexanizmlar, boshqaruv modellari va amaliy keyslar orqali ochib berish dolzarb hisoblanadi. Samaradorlikni baholash tizimi davlat organlari, hududlar va raqamli platformalar faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani, u qay tarzda qaror qabul qilishni yaxshilayotgani yoki, aksincha, qanday institutsional cheklavlarga duch kelayotgani ilmiy va amaliy tahlilni talab qiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi — PF-243-sonli Farmoniga tayangan holda davlat boshqaruvida samaradorlikni baholash tizimini amaliy nuqtayi nazardan tahlil qilish, uni joriy etishda yuzaga kelayotgan institutsional va tashkiliy muammolarni aniqlash hamda vazirliklar, hududlar va raqamli platformalar misolida samarali ishlaydigan mexanizmlar bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish masalasi so'nggi o'n yilliklarda xorijiy ilmiy adabiyotlarda alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllandi. Ayniqsa, IHTT (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) mamlakatlari tajribasida "results-based governance", "performance management" va "government effectiveness" tushunchalari davlat siyosatini rejalashtirish, budjetlashtirish va hisobdorlik tizimlari bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilingan. Xususan, IHTT tomonidan tayyorlangan Public Governance Reviews va Government at a Glance hisobotlarida samaradorlikni oshirishning asosiy sharti sifatida markazlashgan metodologik muvofiqlashtirish, strategik maqsadlar ierarxiyasi va natijalardan qaror qabul qilishda foydalanish madaniyati alohida ta'kidlanadi [4].

Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda (E. Kamarck, Congressional Research Service tahlillari) Government Performance and Results Act (GPRA) asosida shakllangan natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv modeli tahlil qilinib, uning kuchli tomoni sifatida baholash natijalarining budjet jarayoni bilan bog'langani ko'rsatilgan. Shu bilan birga, ushbu ishlarda KPIlarga ortiqcha tayanish va sanksiyaviy yondashuvlar ma'lumotlar sifatini pasaytirishi mumkinligi haqidagi tanqidiy xulosalar ham mavjud [5].

Buyuk Britaniya tajribasini o'rgangan ilmiy ishlar (C. Hood, R. Dixon va boshqalar) davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish markaziy muvofiqlashtirish va vazirliklar avtonomiyasi o'rtasidagi muvozanat orqali ta'minlanganini ko'rsatadi. Public Service Agreements doirasida joriy etilgan modellar qisqa muddatda natija bergan bo'lsa-da, metodologiyaning tez-tez o'zgarishi institutsional barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatgani ta'kidlanadi [6].



Singapura bag'ishlangan tadqiqotlarda esa samaradorlikni baholash inson kapitali rivoji, rahbarlar javobgarligi va uzoq muddatli milliy maqsadlar bilan chuqur integratsiya qilingan institutsional model sifatida tavsiflanadi. Civil Service College va UNDP hisobotlarida ushbu yondashuv yuqori ma'muriy salohiyat va professional davlat xizmati mavjud bo'lgan sharoitda samarali ekani qayd etiladi [7].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda davlat boshqaruvini isloh qilish, kadrlar siyosati, raqamlashtirish va samaradorlik masalalari alohida yo'nalishlar kesimida tadqiq etilgan. O'zbekistonlik olimlar va tadqiqotchilarning ishlarida davlat xizmatini modernizatsiya qilish, boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish va korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni kuchaytirish masalalari keng yoritilgan. Biroq ushbu ishlar ko'pincha samaradorlikni baholashni mustaqil yo'nalish sifatida emas, balki umumiy islohotlar kontekstida ko'rib chiqqan bo'lib, uning institutsional arxitekturasiga va qaror qabul qilish jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi yetarlicha tizimlashtirilmagan [8].

Mazkur maqolaning o'ziga xosligi shundaki, u mavjud xorijiy va mahalliy tadqiqotlardan farqli ravishda samaradorlikni baholashni alohida instrument yoki KPllar yig'indisi sifatida emas, balki davlat boshqaruvining barcha elementlarini bog'lab turuvchi institutsional mexanizm sifatida tahlil qiladi. Ayniqsa, PF–243-sonli Farmon doirasida shakllanayotgan milliy modelni vazirliklar, hududlar va raqamli platformalar darajasida qaror qabul qilish jarayonlari bilan bog'liq holda o'rganish maqolaning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot davlat boshqaruvida samaradorlikni baholash tizimini normativ-huquqiy jihatdan emas, balki uning qaror qabul qilish jarayonlariga amaliy ta'siri nuqtayi nazaridan o'rganishga yo'naltirilgan. Shu bois metodologiya samaradorlikni baholashni alohida hisobot mexanizmi sifatida emas, balki davlat boshqaruvining institutsional arxitekturasiga integratsiya qilingan boshqaruv instrumenti sifatida tahlil qilishni nazarda tutadi.

Tadqiqotda institutsional tahlil asosiy metod sifatida qo'llanildi. U orqali PF–243-sonli Farmon doirasida shakllanayotgan samaradorlikni baholash tizimining huquqiy asoslari, institutsional vakolatlar taqsimoti va markaziy hamda sohaviy boshqaruv darajalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tahlil qilindi. Institutsional yondashuv samaradorlikni baholash tizimining barqarorligi va uning ijro mexanizmi bilan bog'liq xavflarni aniqlash imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil usuli xorijiy tajribani mexanik tarzda qiyoslash uchun emas, balki samaradorlikni boshqarishning metodologik prinsiplarini aniqlash maqsadida qo'llanildi. AQSh, Buyuk Britaniya va Singapur tajribalari turli modellarni ifodalovchi keyslar sifatida tanlandi. Ushbu mamlakatlar samaradorlikni baholashda markazlashgan metodologiya mavjud bo'lgan, biroq ijro darajasida turlicha avtonomiya modellarini qo'llaganligi bilan farqlanadi.

Keys-tahlil usuli tadqiqotning amaliy qismini tashkil qildi. U orqali ayrim vazirliklar, hududiy boshqaruv organlari hamda raqamli platformalar misolida samaradorlik ko'rsatkichlarining qaror qabul qilish jarayonlariga qanday integratsiya qilingani o'rganildi. Keyslar tanlanishida baholash natijalarining rahbariyat qarorlariga ta'siri, raqamli instrumentlardan foydalanish darajasi va markaziy muvofiqlashtirish mexanizmlarining mavjudligi asosiy mezonlar sifatida qabul qilindi.

Funksional tahlil samaradorlikni baholash natijalarining budjetlashtirish, davlat dasturlari, kadrlar siyosati va antikorrupsion mexanizmlar bilan qay darajada bog'langanini aniqlashga xizmat qildi. Ushbu yondashuv baholash tizimining hisobot funksiyasidan tashqarida uning real boshqaruv qiymatini ochib berish imkonini berdi.

Manbalar bazasini normativ-huquqiy hujjatlar, davlat organlarining ochiq hisobotlari, raqamli platformalardagi agregatlashgan ma'lumotlar hamda xalqaro tashkilotlarning analitik materiallari tashkil etdi. Ma'lumotlar bilan ishlashda ularning ochiqligi, taqqoslanadiganligi va qaror qabul qilishda qo'llanish imkoniyati asosiy tanlov mezonlari sifatida belgilandi.

Qo'llanilgan metodologik yondashuvlar samaradorlikni baholash tizimini abstrakt model sifatida emas, balki PF–243-sonli Farmon doirasida real boshqaruv amaliyotiga ta'sir ko'rsatayotgan institutsional mexanizm sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari PF–243-sonli Farmon doirasida joriy etilayotgan samaradorlikni baholash tizimi davlat boshqaruvida sifat jihatidan yangi boshqaruv mantiqini shakllantirayotganini ko'rsatdi. Amalda ushbu tizim samaradorlikni alohida KPI yoki hisobot ko'rsatkichlari majmuasi sifatida emas, balki strategik maqsadlar, davlat dasturlari, budjet resurslari va kadrlar siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik orqali baholashga urinayotgani bilan tavsiflanadi.

Davlat boshqaruvida samaradorlikni baholashning institutsional modeli. Tahlil shuni ko'rsatdiki, samaradorlikni baholashning eng yuqori ta'siri uning institutsional markaz orqali muvofiqlashtirilishi bilan

bog'liq. Samaradorlik ko'rsatkichlari markaziy darajada yagona metodologiya asosida belgilangan holatlarda vazirliklar va idoralar faoliyatini solishtirma tahlil qilish, tizimli muammolarni aniqlash va ustuvor yo'nalishlarni qayta belgilash imkoniyati kengayadi. Bu holat xorijiy amaliyotda ham kuzatilib, IHTT mamlakatlarida government-wide performance management tizimlarining samaradorligi aynan metodologik markazlashuv bilan ta'minlangan.

Shu bilan birga, ayrim holatlarda institutsional markazning roli aniq belgilanmagani sababli baholash tizimi formallashib qolmoqda. Bunday vaziyatlarda ko'rsatkichlar davlat organlarining real vazifalari va tashqi muhit omillari bilan yetarlicha bog'lanmay, hisobot yuklamasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Vazirliklar darajasida samaradorlik natijalarining ta'siri. Keys-tahlil natijalari vazirlik darajasida samaradorlikni baholashning ta'siri uning rahbariyat tomonidan qabul qilinishi va qaror qabul qilish jarayonlariga integratsiya qilinishiga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatdi. Samaradorlik ko'rsatkichlari kollegial yig'ilishlar, strategik sessiyalar va resurslarni qayta taqsimlash jarayonlarida faol qo'llanilgan vazirliklarda quyidagi ijobiy natijalar kuzatildi:

- ustuvor yo'nalishlarni belgilashda dalillarga asoslangan yondashuvning kuchayishi;
- budget va kadrlar resurslarini natijaga yo'naltirib qayta taqsimlash;
- sohaviy dasturlarning samaradorligini muntazam qayta ko'rib chiqish amaliyotining shakllanishi.

Ayrim vazirliklarda esa KPllar faqat funksional bo'linmalar darajasida qolib ketgan. Bu holat samaradorlikni baholashning institutsional mas'uliyati aniq belgilanmaganini va rahbariyat darajasida uning strategik ahamiyati to'liq anglanmaganini ko'rsatadi.

Hududiy boshqaruvda natijadorlikni baholash. Hududiy darajada o'tkazilgan tahlil natijalari samaradorlikni baholash tizimi mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashtirilgan holatlarda ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini aniqladi. Hudud rahbarlari uchun natijadorlik ko'rsatkichlari aniq maqsadlar va javobgarlik chegaralari bilan bog'langan taqdirda, ular tashabbuskorlik va mas'uliyatni oshirish vositasiga aylanmoqda.

Biroq yagona metodologiya va raqamli monitoring mexanizmlari to'liq joriy etilmagan hududlarda natijalarning o'zaro taqqoslanishi cheklangan. Bu esa markaziy darajada tizimli tahlil o'tkazish va resurslarni adolatli taqsimlash imkoniyatlarini pasaytiradi.

Raqamli platformalarning boshqaruv qiymati. Raqamli platformalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ular samaradorlikni baholashda ma'lumot yig'ish funksiyasini yetarli darajada ta'minlamoqda. Ammo ularning boshqaruv qiymati ma'lumotlarning qanday qayta ishlanishi va talqin qilinishiga bog'liq. Avtomatik tahlil, vizualizatsiya va ssenariyli prognoz elementlari mavjud bo'lgan platformalar rahbarlar uchun qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi vositaga aylanmoqda.

Faqat ma'lumot jamlash bilan cheklangan raqamli yechimlar esa samaradorlik tizimini "raqamlashtirilgan hisobot" darajasida qoldirmoqda. Bu holat raqamli transformatsiyani institutsional islohotlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Samaradorlik natijalarini qaror qabul qilishga integratsiya qilish. Tadqiqot natijalari samaradorlikni baholash natijalari quyidagi sohalarga bog'langan holatlarda eng yuqori amaliy samara berishini aniqladi:

- davlat dasturlari va tarmoq loyihalarini qayta ko'rib chiqish;
- budget mablag'larini qayta taqsimlash;
- rahbarlar faoliyatini baholash va rivojlantirish;
- korrupsiyaviy xavflarni tizimli aniqlash va oldini olish.

Shu bilan birga, baholash natijalarini jazolovchi mexanizm sifatida qo'llashga urinish ma'lumotlarning ishonchligini pasaytirishi va ko'rsatkichlarni formal bajarish holatlarini kuchaytirishi kuzatildi. Bu esa xalqaro tajribada ham qayd etilgan asosiy institutsional xavflardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari PF-243-sonli Farmon doirasida joriy etilayotgan samaradorlikni baholash tizimi davlat boshqaruvida natijaga yo'naltirilgan boshqaruvni shakllantirish uchun muhim institutsional asos yaratayotganini ko'rsatdi. Biroq ushbu tizimning amaliy samarasi uning formal joriy etilishi bilan emas, balki qaror qabul qilish jarayonlariga qay darajada integratsiya qilingani, metodologik barqarorligi va ijrochilar tomonidan qabul qilinishi bilan belgilanmoqda.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, samaradorlikni baholash tizimi hisobot instrumenti sifatida qolib ketgan holatlarda u boshqaruv qiymatini yaratmaydi. Aksincha, baholash natijalari strategik rejalashtirish, budjetlashtirish, kadrlar siyosati va davlat dasturlarini qayta ko'rib chiqish jarayonlari bilan uzviy bog'langan taqdirda, u davlat siyosatini tuzatish va resurslarni oqilona taqsimlashning samarali mexanizmiga aylanadi.

Shu nuqtayi nazardan, davlat boshqaruvida samaradorlikni institutsional jihatdan mustahkamlash uchun quyidagi asosiy takliflar ilgari suriladi:



— yagona metodologik markazni institutsional jihatdan mustahkamlash, unga samaradorlik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, muvofiqlashtirish va tahlil qilish vakolatini aniq belgilash;

— samaradorlik ko'rsatkichlarining ierarxik tizimini shakllantirish, ularni strategik maqsadlar, davlat dasturlari va hududiy rivojlanish ustuvorliklari bilan bog'lash;

— baholash natijalaridan jazolovchi emas, tuzatish va rivojlantiruvchi instrument sifatida foydalanish, bu orqali ijrochilar ishonchini saqlash va ma'lumotlar sifatini ta'minlash;

— raqamli platformalarni tahlil va prognoz funksiyalari bilan boyitish, ularni faqat ma'lumot yig'ish vositasi emas, balki qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma sifatida rivojlantirish;

— markaziy va hududiy darajalar o'rtasida mas'uliyat va vakolatlarni aniq taqsimlash, natijalarning solishtirilmaliligi va xolis tahlilini ta'minlash.

Umuman olganda, tadqiqot xulosalari shuni ko'rsatadiki, davlat boshqaruvida samaradorlikni baholash tizimi uzoq muddatli institutsional islohot sifatida qaralishi lozim. Uning barqaror ishlashi ko'rsatkichlar soni yoki raqamli yechimlar darajasi bilan emas, balki institutsional dizaynning sifati, metodologik aniqlik va baholash natijalarini boshqaruv qarorlariga aylantirish qobiliyati bilan belgilanadi. Shu sharoitda samaradorlik davlat boshqaruvida deklarativ maqsad emas, balki amaliy boshqaruv mexanizmiga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-dekabrda "Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-243-sonli Farmoni // Milliy qonunchilik bazasi. <https://www.lex.uz/uz/docs/7886972>
2. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). Public Governance Review of Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 2022.
3. World Bank. Enhancing Government Effectiveness and Accountability. Washington, DC: World Bank, 2021.
4. OECD. Public Governance Reviews: Towards a More Modern, Effective and Strategic Public Administration. Uzbekistan. Paris: OECD Publishing, 6 November 2024.
5. Kamarck E. Results-Based Government: How Performance Measurement Can Improve Public Administration. Washington, DC: Brookings Institution, 2014.
6. Hood C., Dixon R. A Government That Worked Better and Cost Less? Evaluating Three Decades of Reform and Change in UK Central Government. Oxford: Oxford University Press, 2015.
7. UNDP. Institutional and Organizational Performance in Public Administration. New York: United Nations Development Programme, 2020.
8. Abdullayev A., Rahimov B. O'zbekistonda davlat boshqaruvini isloh qilishning institutsional asoslari. Toshkent: "Iqtisodiyot", 2021.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100